UDK: 331.5:658.3(075

YOSHLAR O‘RTASIDA KAMBAG‘LLIKNI KAMAYTIRISHDA TA’LIMNING IMKONIYATLARI

Tojibayev B.T., *PhD, dotsenti,*
Ijtimoiy fanlar kafedrasi,
E-mail: tojibayev77@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va yoshlar ortasidagi prekariat muammosi tahlil qilinadi. Muallif ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali yoshlar bandligini ta’minlash va ularning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlash zarurligini ilmiy asosda yoritadi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik, dual ta’lim tizimi, yoshlar tadbirkorligi va falsafiy-insonparvar yondashuvning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Аннотация: *В статье анализируются изменения на современном рынке труда и проблема нестабильности занятости среди молодежи. Автор научно обосновывает необходимость обеспечения занятости молодежи и укрепления ее социальной стабильности путем внедрения инновационных подходов в систему образования. Одновременно подчеркивается важность цифровой грамотности, системы дуального образования, молодежного предпринимательства и философско-гуманистического подхода.*

Abstract: *The article analyzes the changes in the modern labor market and the problem of precarity among young people. The author scientifically highlights the need to ensure youth employment and strengthen their social stability by introducing innovative approaches in the education system. At the same time, the importance of digital literacy, dual education system, youth entrepreneurship and a philosophical-humanistic approach is highlighted.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, innovatsiya, yoshlar, prekariat, raqamli savodxonlik, dual ta’lim, tadbirkorlik, ijtimoiy barqarorlik.*

Ключевые слова: *система образования, инновации, молодежь, нестабильность занятости, цифровая грамотность, дуальное образование, предпринимательство, социальная стабильность.*

Keywords: *education system, innovation, youth, precarity, digital literacy, dual education, entrepreneurship, social stability.*

Kirish. Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida kambag‘allik faqat daromad yetishmasligi emas, balki imkoniyatlar cheklanganligini ifodalovchi kompleks ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammoni hal etishda ta’lim jamiyatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy institut sifatida qaraladi. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim shakllarining rivojlanishi kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda.

Global iqtisodiy jarayonlar va texnologik o‘zgarishlar natijasida jamiyatni murakkab tuzilmasini paydo bo‘lishi va yangi ijtimoiy qatlam – prekariat (aholining doimiy ish va daromad manbai bilan ta’minlanmagan qatlami) shakllanmoqda. Bu toifa asosan barqaror ish o‘rniga, kafolatlangan daromadga yoki ijtimoiy himoyaga ega bo‘lmagan yoshlardan iboratdir. "Prekariat" (precariat) atamasi ingliz tilidagi ikki so‘z – "precarious" (beqaror, xavfli, ishonchsiz) va "proletariat" (proletariat) so‘zlarining birlashuvidan hosil bo‘lgan [1]. Oksford tili ingliz lug‘ati (OED) ma’lumotlariga ko‘ra, "precariat" so‘zining qo‘llanilishi dastlab 1980-yillarga to‘g‘ri kelib, Maykl Xarringtonning 1989 yilgi ishlarida qayd etilgan [2]. Stendingning fikricha prekariat o‘z davrigacha bo‘lgan tushunishlardan farq qiladi: ular mehnat vositalariga ega emasligidan tashqari, doimiy ish joyiga, barqaror daromadga, ijtimoiy kafolatlarga (tibbiy sug‘urtaga ega bo‘lmagan,

pensiya, haq to‘lanadigan ta’til va h.k.) xam ega emas, ularning mehnati ko‘pincha qisqa muddatli, kunbay yoki vaqtinchalik xarakterga ega [3]. Prekariat muammosi ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga mos bo‘lmaganligi bilan xam bog‘liq. Bunday holatlar ko‘pincha ta’lim tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi, jamiyatda ilmtalab soxalarni rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Shu sababli ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish yoshlar o‘rtasidagi kambag‘allikni kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi. Ta’lim tizimini innovatsion asosda qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish yoshlar ortasidagi prekariatni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Usullar. Ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uyg‘unlik. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli platformalar, onlayn kurslar va masofaviy ta’lim shakllarining rivojlanishi ta’limga kirishdagi hududiy va ijtimoiy to‘siqlarni sezilarli darajada kamaytirmoqda. Shu bilan birga, umrbod ta’lim, dual ta’lim va kasbiy qayta tayyorlash dasturlari kam daromadli qatlamlarning mehnat bozoriga moslashuvini ta’minlab, kambag‘allikni qisqartirishda amaliy samara bermoqda. Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra (G. Becker) [4], ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalar shaxsning mehnat unumdorligi va daromad salohiyatini oshiradi. A. Senning qobiliyatlar yondashuvida [5] esa ta’lim insonning real imkoniyatlarini kengaytirib, kambag‘allikning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Sotsial mobillik nazariyasi nuqtai nazaridan, ta’lim past ijtimoiy qatlamlar uchun “ijtimoiy lift” vazifasini bajaradi.

Natijalar. Zamonaviy mehnat bozori tez sur’atda o‘zgarmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimi iqtisodiyotning real ehtiyojlariga moslashgan va mamlakatdagi bo‘sh ish o‘rinlari ilm talab soxalarni qamram olgan bo‘lishi lozim. Bu kabi extiyojlar va kasb-korlikka bo‘lgan talablar bugungi mehnat bozoridagi tez o‘zgarishlar ta’lim dasturlarini yangilashni, maxnat bozoriga mos kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik yoshlarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Shu kabi extiyojlarni qondirish uchun yangicha ta’lim berish usullari joriy etlmoqda xususan, dual ta’lim tizimi - bu ta’lim va ishlab chiqarish jarayonini uyg‘unlashtiruvchi model bo‘lib ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi faolligini talab etadi. Bu tizim Germaniya va Shveysariya tajribasida bo‘lajak mutaxassislarni mexnat bozorida o‘z o‘rnini topishda samarasini bergan [6]. Professional ta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga yo‘naltirilgan fanlarni ko‘paytirilishi xam keyingi yillarda xalqaro tajribada katta samara bermoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar keng joriy etilmoqda [7].

Ish beruvchilar ishtirokida ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu borada yurtimizda amalaiy xarakatlar allaqachon boshlangan va ish beruvchilarni fikri doimiy ravishda monitoring qilinmoqda. Bunday yondashuvlar yoshlarga amaliy tajriba berib, ularni mehnat bozoriga tayyorlaydi.

Raqamli savodxonlik va innovatsion ko‘nikmalar. Raqamli savodxonlik zamonaviy mehnat bozorida bandlikka kirishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, u kam daromadli qatlamlarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion ko‘nikmalar (tanqidiy fikrlash, muammo yechish, kreativlik) inson kapitalining sifat jihatdan o‘sishini ta’minlab, past malakali mehnatdan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega faoliyatga o‘tish imkonini yaratadi. Raqamli ta’lim platformalari va onlayn kurslar ta’limga kirishdagi hududiy va ijtimoiy to‘siqlarni kamaytirib, kambag‘al qatlamlar uchun bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli ko‘nikmalarning rivojlanishi norasmiy bandlikdan rasmiy mehnat bozoriga integratsiyani rag‘batlantirib, prekariat qatlamini qisqartirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish avlodlararo kambag‘allikni uzishda samarali mexanizm bo‘lib, intergeneratsion sotsial mobillikni kuchaytiradi. Davlat tomonidan raqamli inklyuziyaga qaratilgan ta’lim siyosati kambag‘allikni kamaytirishning barqaror va institutsional asoslarini yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ta’limning ustuvor vazifasidir. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, XXI asrda har bir fuqaro raqamli savodxonlikka ega

bo‘lish i zarur [8]. Yoshlar uchun IT, raqamli marketing, tadbirkorlik, analitika kabi yo‘nalishlarda ta’lim berish ularning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, umrbod ta’lim (lifelong learning) konsepsiyasini amalga oshirish yoshlar kasbiy malakasini doim takomillashib borish imkonini beradi [9]. “Innovatsion yoshlar” loyihasi bo‘yicha venchur jamg‘armalari orqali yoshlar ilmiy tadqiqotlar, texnologik ishlanmalar va startaplar uchun infratuzilmani rivojlantirishga qarz mablag‘larini ajratish yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlanadi va yoshlarning zamonaviy va talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga, shu jumladan, raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarga o‘qishi o‘rnatilgan tartibda moliyalashtiriladi.

Ta’limda insonparvar yondashuv. Insonparvar yondashuv ta’lim jarayonida shaxsni faqat bilim oluvchi ob’ekt emas, balki o‘z rivojlanishining faol sub’ekti sifatida qarashni nazarda tutadi. Insonparvar ta’lim modelining markazida shaxsning qadr-qimmati, erkin tanlovi va individual qobiliyatlarini rivojlantirish g‘oyasi turadi. Innovatsion ta’lim faqat texnologiya emas, balki insonni rivojlantirishga ham qaratilgan bo‘lishi lozim. Aristotelning “o‘rta yo‘l” g‘oyasi inson hayotida muvozanat va ma’naviy barqarorlikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Stoiklar esa insonning ichki erkinligi va mas’uliyat hissi uni arqarorlikka yetaklaydi deb hisoblashgan. Shunday falsafiy asosdagi ta’lim yoshlarda ichki kuch, intizom va hayotdagi maqsadni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’limda insonparvarlik kognitiv rivojlanish bilan bir qatorda axloqiy, ijtimoiy va emotsional kamolotni ham ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuv hisoblanadi. Insonparvar yondashuvga asoslangan ta’lim inklyuzivlikni ta’minlab, ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allikni kamaytirishda samarali ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘zaro ishonch va dialog insonparvar ta’limning asosiy pedagogik sharti hisoblanadi.

Yoshlar tadbirkorligi va ijodiy faollikni qo‘llab-quvvatlash. “Yoshlar biznesi” dasturi [10] yoshlarning tadbirkorlik g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek, yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan. zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yoshlarning startap va investitsiya loyihalariga imtiyozli moliyaviy mablag‘larni ajratish ko‘zda tutilgan. Yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish prekariatni kamaytirishning amaliy usulidir. Davlat grantlari, startap dasturlari va innovatsiya markazlari yoshlarga iqtisodiy mustaqillik beradi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mamlakat YaIMini o‘rtacha 2–3% ga oshiradi [11]. O‘zbekistonda ham “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi doirasida yoshlar startaplari va biznes g‘oyalariga ijtimoiy-iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatilmoqda. Shuningdek 14 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan yetim yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarning jamiyatga ijtimoiylashuvi hamda integratsiyasini ta’minlash, ularning erkin kasb tanlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy xizmat va yordamlar belgilanadi. Individual integratsiya rejasini amalga oshirishda yoshlarga Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi hamda "Saxovat va ko‘mak" jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’lim olishga va bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, davolash, uy-joy sharoitlarini yaxshilash yo‘nalishlarda ijtimoiy yordamlar ko‘rsatiladi.

Muhokamalar. Ta’lim imkoniyatlarining tengligini ta’minlash. Inklyuziv ta’lim siyosati kambag‘allikning ijtimoiy reproduksiyasini cheklashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qizlar, qishloq aholisi va ijtimoiy zaif guruhlar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Ta’limdagi tengsizlik – prekariat shakllaniishining asosiy manbalaridan biri. Qishloq va shahar maktablari o‘rtasidagi infratuzilmasi o‘rtasidagi sezilarli farqlanishlar yoshlarning ta’lim olish imkoniyatlariga xam jiddiy ta’sir qiladi va inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini chaklaydi. BMTning “Barqaror rivojlanish” loyixasining strategik maqsadlaridan biri – “Barcha uchun sifatli ta’lim”ni amalga oshirishdir. Shuning uchun davlat siyosati ta’limda

tenglikni ta’minlash, kam ta’minlangan yoshlarga stipendiya-grantlar berish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida sotsial mobillik imkoniyatlarini oshirish, ta’lim infratuzilmasini yaxshilash va xizmat mansubligida meritokratik tamoyillarni qat’iylashtirishga qaratilmog‘i zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’limning zamonaviy imkoniyatlari inson kapitali sifatini kompleks ravishda oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirishda tizimli va barqaror ta’sir mexanizmini shakllantiradi. Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalar faqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirib qolmasdan, balki mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ijtimoiy tengsizlikni cheklash hamda inklyuziv ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar o‘rtasida kambag‘allikning saqlanib qolishi ko‘p jihatdan ta’lim tizimining mehnat bozori talablari va jamiyat ehtiyojlari bilan yetarlicha uyg‘unlashmagani bilan izohlanadi. Shu bois ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta qurish, uni innovatsion mazmun bilan boyitish kambag‘allikni kamaytirishning hal qiluvchi shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dual ta’lim orqali nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, raqamli savodxonlikni rivojlantirish orqali yangi iqtisodiy sektorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish yoshlarning barqaror daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida falsafiy-insonparvar tarbiyani kuchaytirish yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik faolligi va ma’naviy barqarorlikni shakllantirib, kambag‘allikka faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-madaniy muammo sifatida yondashish imkonini beradi. Bunday integrativ ta’lim modeli natijasida yoshlar faqat ish bilan ta’minlanadigan resurs emas, balki ijtimoiy jarayonlarni anglaydigan, innovatsion fikrlaydigan va o‘z hayot strategiyasini mustaqil belgilay oladigan faol sub’ekt sifatida kamol topadi. Ta’limning zamonaviy va insonparvar modelini shakllantirish yoshlar o‘rtasida kambag‘allikni kamaytirish bilan bir qatorda, ijtimoiy faollikni oshirish, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda uzoq muddatli barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi institutsional asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Frenchy Lunning. Mechademia. Fantropologies. Published by the University of Minnesota Press. 2010 p. 252.(380)
2. https://www.oed.com/dictionary/precariat_n?tl=true.
3. Стэндинг Г. Прекариат: новый опасный класс. М.: Ад Маргинем, 2014.
4. Toshpo‘latov I. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi. FarDU Ilmiy xabarlar. 2-son 2023 y. 332-336 b.
5. https://uz.council.science/blog/there-is-no-human-development-without-love/
6. BIBB Report (2019). Dual Education System in Germany. Federal Institute for Vocational Education and Training. Bonn.P.9
7. O‘zbekiston Respublikasi Президентининг “Касбий таълим тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги PQ–3775-сон қарори, 2018 йил.
8. Published in 2022 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France
9. Vaxabova D. Ozbekistonda umr bo‘yi ta’lim asosida inson kapitalini rivojlantirish. “Raqamli iqtisodiyot” Ilmiy-elektron jurnal. 11-son 2025 y. 1916-1922 b.
10. https://www.lex.uz/docs/7387025
11. https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/6677